

## BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH

**Sharifov Muxriddin Kamoladdin o'g'li**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti*

*Mashinasozlik fakulteti tyutori*

**Annotatsiya:** Xalqaro hamjamiyatda pedagogik innovatsiyalar global miqyosda ahamiyatli ta'lif-tarbiya jarayonlarida insoniyat uchun serqirra imkoniyatlar ochib bermoqda. Xususan, jahoning eng ilg'or universitetlari va innovatsion ta'lif markazlarida kasbiy ta'lifni virtuallashtirish (Virtualization), modellashtirish (Simulations), maqbullashtirish (Software Optimization) va uning zamonaviy paradigmalaridan internet tarmog'idagi ta'lif (3D learning; e-learning platforms: Moodle, Ilias, Dokeos va h.q.) ning jadal ravishda ommalashib borayotgan paytda istiqbolli mega-portallarini yaratish muammolariga nazariy va amaliy yechimlar topishda innovatsion ishlanmalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, innovatsion faoliyat, tizimli yondashuv, innovatsion ta'lif metodi, ilg'or innovatsion texnologiyalar.

### ASOSIY QISM

Innovatsiya, inglizcha “innovation” – yangilik kiritish, yangilik degan ma`nolorni anglatadi. Bu termin hozirgi zamon faniga yangi kirib kelgan. Yangilikni joriy qilish esa birmuncha mushkul vazifa hisoblanadi. Bu borada bizga innovator o'qituvchilar, ya`ni yangilik kiritishga mas`ul o'qituvchilarimiz katta yordam beradi. Demak, innovator o'qituvchi deganda fanning turli sohalariga yangilik olib kiruvchi insonlarni tushunamiz. Bunday o'qituvchilarimiz ilm-fanning rivojlanishiga o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shadilar. Ular joriy qilayotgan yangilik fanning shu sohasini rivojlanishida juda katta foyda beradi.

Innovator mutaxassis zimmasiga ham bir necha mas`uliyatlar yuklanadi, ya`ni joriy qilinayotgan yangilik nechog'lik samara beradi yoki bu yangilikni olib kirib qanday yutuqqa erishish mumkin. Shu kabi savollarga yangilikdan olingan natija ijobiy javob berishi mumkin. Shundagina bo'lajak mutaxassis o'zi ko'zlagan maqsadga erishadi. Bu esa innovator mutaxassis ish faoliyatini rivojlanishigi katta yordam beradi.

Bo'lajak mutaxassisning innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshishini ko'zda tutadi.

Bo'lajak mutaxassisning innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga bo'lajak mutaxassisning muloqoti, qarama-qarshi fikrlarga nisbatan beg'araz munosabati, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida bo'lajak mutaxassis o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta`minlaydigan keng qamrovli mavzuga ega bo'ladi.

Bo'lajak mutaxassis faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchanligi mavzulari muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir. Muloqotning yangi vaziyati - bu bo'lajak mutaxassisning o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidar. Bo'lajak mutaxassisning o'z nuqtai-nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u tajribalarning bosh shakllari orqali ochilib, mukammallahib boradi. Bunday vaziyatda bo'lajak mutaxassisning fikrlash usullari ham, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi.

Aytish lozimki, oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak mutaxassislarining innovatsion faoliyatini shakllantirishda o'ziga xosligidan kelib chiqilgan, ularning ixtisoslik hamda maxsus fan va sohalarga yo'naltirishga e'tibor qaratilgan. Bugungi yosh avloddan o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda, kuch, bilim va salohiyatini vatan ravnaqi yo'lida sarflashi nechog'lik muhim ekanligini barchamiz his etamiz. Chunki, O'zbekistonda yashayotgan millionlab yoshlardan har biri ertaga ularning vatani dunyo bilan tenglashishi, birinchi galda o'zlariga bog'liqligini anglab yetmoqligi kerak.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash davomida innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Bo'lajak mutaxassis keyingi faoliyatida o'z-o'zini boshqarish, faollashtirish, o'z ijodkorligi muhim ahamiyat kasb etadi, bu esa mutaxassis shaxsining kreativligining faolligini shakllantirish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida ilg'or innovatsion texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish, ta'lim tizimidagi muammolarni hal qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Bo'lajak mutaxassislarining fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. Bunday usullarni qo'llash har qanday ta'lim tizimidagi muammolarni o'z-o'zidan hal bo'lishiga olib keladi. O'qituvchi darsda boshqaruvchi bo'lajak mutaxassis esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yordarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.

Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat.

Bo'lajak mutaxassisning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;

- ijodkorligi

Innovatsion faoliyat bo'lajak mutaxassisning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

Innovatsion faoliyat mohiyati, tuzilmasini aniqlashga aksilogik, refleksiv-faoliyatli, tizimli-funksional, ijtimoiy-psixologik, individual-ijodiy yondashuvlar, uning quyidagi muhim belgilarini aniqlab beradi:

- oldindan mavjud manbalarni hisobga olgan holda va fan-texnika yutuqlarini e'tiborga olib pedagogik faoliyatni loyihalashtirish va uning natijalarini bashorat qila olish;

- ta'lim jarayoniga «tizimli yondashuv» tadqiqot usulini qo'llashda qaralayotgan tizimning komponentlari orasidagi bog'lanishlarni e'tiborga olish va bular asosida ta'lim oluvchining o'quv-bilish faoliyatini ifodalovchi ta'lim-tarbiya jarayoni rejasini tuzish;

- ta'lim maqsadining aniq qo'yilishi, uning tashxisi va bashorati hamda ta'lim oluvchining o'zlashtirish sifatini xolis baholash mezoni bo'lishi kerak;

- ta'lim tizimi tuzilishi, tarkibi, mazmuni bir butun yaxlit bo'lib, ularning o'zaro bog'liqligi, bir-birini bosqichma-bosqich to'ldirib borishi ta'minlangan bo'lishi kerak;

- innovatsion faoliyatning optimal variantlarini ta'minlay olish;

- ta'lim jarayonining texnik va axborotli ta'minoti yetarli bo'lishi;

- yaratilgan yangilikni ta'lim oluvchining ilmiy-uslubiy salohiyatini hisobga olgan holda qo'llash;

-ta'lim sifatiga e'tibor bergen holda shakllantiruvchi va yakuniy nazortalarni tashkil etish;

-ta'lim samaradorligini aniqlash bo'yicha nazorat va olingan natijalarini amaliyotga joriy etish yuzasidan uslubiy tavsiyalar berish.

Xulosa

Davlat va jamiyat talablari asosida bo'lajak mutaxassisni innovatsion faoliyatga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish bilan bunday tayyorgarlikni shakllantirishning metodik tizimini loyihalash va amaliyotga joriy etish orqali professional ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassisning innovatsion tayyorgarlik sifatini orttirish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Innovatsiya-maqsadga qaratilgan o'zgarish bo'lib, qo'llanish sohasidagi tizimni bir holatdan sifat jihatdan yangi holatga o'tkazish, uni tubdan takomillashtirishni, innovatsion jarayon-yangilikni yaratish, o'zlashtirish, qo'llash va tarqatishdagi kompleks faoliyatni anglatadi.

2. Yangilik qandaydir aniq bir belgisi bo'yicha tasniflanishini nazarda tutib, ta'lim jarayoni metodik tizimining asosiy komponentlari asosida yangiliklar quyidagicha tasniflandi: ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, o'qitish vositalari hamda ta'lim natijalaridagi yangiliklar.

3. Oliy ta'lif tizimida bo'lajak mutaxassisning innovatsion faoliyatga tayyorligi - mustaqil, maqsadli, bosqichma - bosqich, ehtiyoj va motivatsiya asosida shaxsiy qarashlarini o'zgartirishga bo'lgan zaruratga bog'liq holda turli yo'llar bilan innovatsion faoliyatni amalga oshirishga qaratilgan shaxsiy faoliyatni amalga oshirish va unga o'zgartirishlar kiritish imkoniyatidir.

4. Innovatsiyalarning asosiy tushunchalariga «innovatsion imkoniyat», «innovatsion ta'lif muhiti» tushunchalari ham kiradi. Ta'lif muassasasining innovatsion imkoniyati - uning yangilikni yaratish, qabul qilish, amalga oshirish qobiliyati hamda pedagogik maqsadga javob bermaydigan, eskiliklardan xalos bo'lishidir. Innovatsion ta'lif muhiti – ta'lif jarayoniga yangiliklarni kiritishni ta'minlovchi tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi choralar majmuasi bilan mustahkamlangan aniq ma'naviy-ruhiy sharoitdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. Darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2008. 288 b.
2. Ishmuxamedov R., Abdukodirov A., Pardaev A. Ta'lifda innovatsion texnologiyalar. –T.: “Iste'dod”, 2010, 141 b.
3. Mavlonova R, Voxidova N., Raxmonkulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. –T.: “Fan va texnologiya”, 464 b.
4. Muslimov N.A. va b. Innovatsion ta'lif texnologiyalari va kasbiy klmpetentlik. O'quv-uslubiy majmua. TDPU huzuridagi PKQT va MO tarmoq markazi, 2016. 39 b.